

“HIND SAYYOHI BAYONOTI”DA DAVR MUAMMOLARINING BADIY TALQINI

*Shomurodova Dilorom Husanmurotovna,
Tadqiqotchi*

Annotatsiya: *Jadidchilik adabiyoti haqida soʻz yuritar ekanmiz, Abduraif Fitratning bu boradagi oʻrnini alohida eʼtirof etish joiz. Uning har bir asarida oʻsha zamon va makondagi muammolar, ularning yechimlari boʻyicha qimmatli fikrlar joy olgan. Jumladan, adibning “Hind sayyohi bayonoti” asarida Buxoro xonligining, umuman Turkistonning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy hayotidagi kamchiliklar, muammolar keskin fosh etiladi. Shuningdek, ularni hal qilishga oid islohotchilik gʻoyalari ham beriladi.*

Kalit soʻzlar: *milliy uygʻonish, islohot, gʻoya, maʼrifatparlik, asar, muammo, obraz, hadis.*

Аннотация: *Говоря о джадидской литературе, стоит признать особое место Абдураифа Фитрата в этом плане. Каждое его произведение содержит ценные мысли о проблемах того времени и места, их решениях. В частности, произведение писателя «Заявление индийского путешественника» остро обнажает недостатки и проблемы в экономической, социальной, политической и религиозной жизни Бухарского ханства и Туркестана в целом. Также приводятся реформаторские идеи по их решению.*

Ключевые слова: *национальное пробуждение, реформа, идея, просвещение, произведение, проблема, образ, хадис*

Abstract: *Speaking about Jadid literature, it is worth recognizing the special place of Abduraif Fitrat in this regard. Each of his works contains valuable ideas on the problems of that time and place, their solutions. In particular, the writer's work "The Statement of the Indian Traveler" sharply exposes the shortcomings and problems in the economic, social, political, and religious life of the Bukhara Khanate and Turkestan in general. Reformist ideas for solving them are also given.*

Keywords: *national awakening, reform, idea, enlightenment, work, problem, image, hadith*

Abduraif Fitrat XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-madaniy oʻzgarishlar zamonida yashadi. Ana shunday talotoʻpli hayot, milliy uygʻonish va bu uygʻonishni bostirishga urinishlar, mustamlakachilik zulmi, millat erki va taqdirining xavf ostida qolishi Fitrat

ijodining asl g‘oyasini belgiladi. Aytish mumkinki, islohotchilik, ma’rifatparvarlik, Turkiston birligi g‘oyalari Fitrat uchun har doim asosiy g‘oyaviy bazis bo‘lib xizmat qilgan.

Abdurauf Fitratning Istanbulda nashr qilingan tojik tilida yozilgan “Bayonoti sayyohi hindi” (“Hind sayyohi bayonoti”) qissasi yaratgan nasriy asarlari ichida alohida o‘rin tutadi. Sadridin Ayniy mazkur asarni “Roman uslubida yozilgan asar” deya ta’riflaydi va uning Buxoro afkori umumiyasiga kuchli ta’sir etganini qayd etadi.

Fitrat 1909-yilda tojik tilida yozgan “Munozara” asarida ma’rifatparvar adib sifatida Buxoro amirligi idorasiga ma’lum islohot-o‘zgartish kiritish g‘oyasini ilgari surgan edi. “Hind sayyohi”da yangicha g‘oyani – ma’lum darajada Buxoro amirligiga nisbatan o‘z e’tiroznomasini bayon etadi. Asarning mavzu doirasi ham, unda bayon qilingan voqealarning ko‘lami ham ancha keng. Asarda Buxoro amirligi hududidagi butun iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotning ko‘plab muammolari tilga olinadi. Ularni vujudga keltirgan ijtimoiy ildizlarni tahlil etish barobarida, bu kabi sanoqsiz illat va kamchiliklardan xalos bo‘lish yo‘llari ham ko‘rsatiladi. O‘z davrida Fayzulla Xo‘jayev ushbu asar haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: “...Mavjud tuzumni qattiq tanqid qilgan, uning barcha tanqidlarini ayovsiz ochib tashlagan, amirlikning chirik sistemasini ochib bergan “Sayyohi hind” asarining ahamiyatini qayd etmasdan o‘tolmaymiz” [4.98-99-b.]

To‘g‘ri, asarda yozuvchining hali islohotchilik g‘oyalari butkul voz kechmagani seziladi. Biroq, Buxoro davlatining madaniyati, tabobati, sanoati va hatto yer osti boyliklaridan xalq manfaati yo‘lida foydalanish, o‘lkaning ma’naviy va moddiy boyliklari haqidagi qayg‘urishlari uni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yuksaklikka ko‘taradi.

Qissa Buxoroga kelgan hindistonlik musulmon sayyoh tilidan hikoya qilinadi. Aslida hind sayyohi – yozuvchining o‘zi. Bu yerda Fitratning asar qurilmasi borasidagi mahoratiga, fikrni bayon etish uslubiga tan bermasdan iloj yo‘q. “Hind sayyohi” yozilgan paytda Rossiyada Stolipin islohoti avjga chiqqan, birinchi rus inqilobining “achchiq saboqlari” hukmron sinfnı larzaga solgan, ana shular ta’sirida esa Rossiyaga qaram bo‘lgan Buxoroda ma’rifatparvar jadidlar harakati ancha kuchaygan edi. Shuningdek, bu davrda Turkiya va Erondagi ma’rifiy-inqilobiy harakatlar jonlangan, Afg‘onistonda mustabid amir Habibulloxon zulmiga qarshi Omonulloxon, Mahmud Tarziylar harakati yuzaga kelgan edi.

Fitrat “Hind sayyohi”da Buxoro xalqini uch toifaga ajratadi: ulamo, umaro va fuqaro. Bu tasnif orqali muallif Buxoro jamiyatidagi kuchlar muvozanatini, adolatning qayerda yo‘qolganini, zulmning kimlardan kelib chiqqanini aniqlashtirib beradi.

Ulamo – diniy rahbarlar, shayxlar va mudarrislar jamiyatning axloqiy va diniy ustunlaridir. Biroq Fitrat ularning aksariyatini tanqid qilib, ularni ilmni xalq manfaatiga emas, balki hukmron tuzumni mustahkamlashga xizmat qilayotganlikda ayblaydi. Ilmga emas, mansab va boylikka intilgan bu toifa o‘z vazifasini unutganini ko‘rsatadi. Umuro – amir va uning atrofidagi amaldorlar, zodagonlar sinfi bo‘lib, ular hokimiyatni suiiste‘mol qilib, oddiy xalqni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ezib kelgan. Fitrat ularni xalqni o‘ylamaydigan, o‘z manfaatidan nariga o‘tolmaydigan toifa sifatida ko‘rsatadi. Fuqaro – oddiy mehnatkash xalq. Aynan shu qatlam adolatsizlikning eng katta qurboni bo‘lgan. Fitrat bu sinfni o‘z asarlarida mehr bilan tasvirlaydi. Ularning beozorligi, sabrtoqatga to‘la hayoti, lekin ayni paytda nohaqliklardan aziyat chekayotgan holati muallifning yuragini og‘ritadi.

“Hind sayyohi...”ni mutolaa qilar ekanmiz, Fitratning yurt taqdiri uchun qanchalik qayg‘urishi, iztirobga tushishini ravshan ko‘rib boramiz. Buxoro amirligi o‘sha paytda hozirgi Qarshi, G‘uzor, Shahrisabz, hatto Hisor tog‘larigacha bo‘lgan hududda hukmronlik qilar edi. Ana shunday keng sarhadlarda ma‘rifat va sog‘liqni saqlash, ilm-fanning taraqqiyotdan ortda qolishi sababini mullalar, mufti va amirlarning keng ma‘nodagi ilm-fandan uzoqligi, mansab-u boylikka o‘chligi, poraxo‘rliги tufayli deb bilgan Fitrat, katta mahorat bilan bu illatlarni fosh etadi, shu yo‘l bilan ma‘rifat chirog‘ini yoqib, qorong‘ulik va dahshatdan qutulish yo‘llarini qidiradi.

Fitrat “Hind sayyohining qissasi”da ma‘rifat haqidagi fikrlari, mulohazalarini ilgari surar ekan, Buxoro xonligida sodir bo‘layotgan adolatsizliklarni chuqur tahlil etish, dalillarni qiyoslash, umumlashtirish yo‘lidan boradi. Uning katta samimiyat va dard bilan aytgan fikrlari, hukm-xulosalari o‘quvchiga kuchli ta‘sir etadi.

“Hind sayyohi...”da Fitrat Buxoro amirligida mang‘itlar sulolasidan meros qolgan qoloqlik, bid‘at, xalq qonini so‘ruvchi amiru amaldorlar, ajnabiy fabrikantlar-u mahalliy boylar, savodsiz muftilaru bir-birini g‘ajishga tushgan mahalliy tojirlar, qora kunini “taqdiri ilohiy” deb bilgan omi kosibu dehqonlarni qattiq tanqid qiladi, ularni islohotga chorlaydi, millat g‘ururi, boyligi, hunarmandchiligi-yu amaliy san‘atini asrashga va yuksaltirishga chaqiradi. Yozuvchi o‘lkadagi bir qator sohalardagi, jumladan ta‘lim, sog‘liq, iqtisodiyot va adliya tizimidagi buzuqliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari, shuningdek dindagi bid‘at va xurofotlarga qarshi kurashish haqida to‘xtalib o‘tadi.

Fitrat birinchi navbatda ta‘lim muammosiga e‘tibor qaratadi. Boshlang‘ich ta‘lim maskanlari bo‘lgan maktab, madrasa, qorixona, kutubxonalar, shu qatori, kadrlar tayyorlash tizimi, o‘quvchi va o‘qituvchilarning bilim darajalarini alohida ko‘rib chiqadi. Ayniqsa ta‘lim uchun ajratilgan vaqf pullarining boshqa maqsadlarda sarf

qilayotgan mudarris va boshqa ta'lim boshqaruvidagi mutasaddilarni tanqid qiladi. Xususan, juda yomon sharoitlarda och, yupun, nochor ahvolda yigirma yilga yaqin vaqtini ilm olish bilan o'tkazayotgan talabalarning ahvolini ko'z oldiga keltiradi.

Bu sohaning yechimi shu bilan birga Buxoroning eski shonli kunlariga qaytara oladigan kuch sifatida yozuvchi usuli-jadid maktablarini e'tirof etadi.

Fitrat nazarida turgan yana bir masala bu sog'liqni saqlash tizimidagi muammolardir. Unga ko'ra, Buxoroda xalqning sog'liqni saqlash uchun asosiy shart bo'lgan kasalxonalarining yetarli emasligi va mutaxassislarning kamligidir. Eng ahamiyatlisi o'lkada hanuz bir tibbiyot o'quv maskanining yo'qligidir. Asarda sayyoh kasalligi sabab ikki buxorolik shifokorlardan yordam so'raydi. Bularning biri eski usulda tib ilmini o'rgangan va an'anaviy yo'llar bilan davolaydi. Boshqa tomondan dunyoda tibbiyot sohasidagi yangiliklardan xabarsizdir. Buxoro Dorush-shifosi va Amirning bosh tabibi bo'lgan ikkinchi shifokor ham tibbiy bilimni u otasidan meros qolgan tib kitoblaridan o'zi o'rgangan. Fitrat bu ikki shifokorning ham bilim va saviyasi jihatdan shifokorlik kasbiga nomunosib ekanligini aytib o'tadi. Mahalliy tabiblardan davo topmagan Sayyoh oxiri rus shifokorini keltiradi. Rossiyada o'qigan bu shifokor ustalik bo'lgan kasallikni davolaydi. Ammo achinarlisi Buxoro xalqi bu rus shifokoridan uni kofir deya uzoq turadilar. Holbuki, Yevropa tibbiyot ilmi juda oldinda bo'lib, bu yo'nalishda aslida buxorolik kadrlar tayyorlash zarur bo'lsa, shu davlatlarda o'qish uchun musulmon talabalarning ham jo'natish kerakligini yozuvchi alohida e'tirof etadi. Fikrining dalili sifatida Payg'ambarimiz Muhammad alayhisssalomning "Ilm Chinda bo'lsa ham, o'rganinglar" shaklidagi hadislarini keltiradi. U hind sayyohi tilidan Buxoroda tozalik, sog'liqni saqlash ishlari o'lda-jo'lda ekanligi haqida gapirar ekan, bu shaharda tibbiyotga oid oliy maktab – Dorush-shifo ochish zarurligini ta'kidlaydi. O'z mulohazalarini isbotlash uchun juda ko'p dalil va raqamlarni keltiradi, ushbu yumushni amirlik xazinasidan bir tanga ham olmasdan, faqat mudarris-u boyonlar g'orat etayotgan vaqf pullarini o'z o'rnida sarflash hisobidan bajarish mumkin ekanligini isbotlab beradi. Asardagi rus do'xtiri obrazida Fitrat o'z yurtdoshlarini Yevropa mamlakatlaridagi kabi madaniy, pokiza va o'qimishli kishilar timsolida ko'rishdek olijanob niyatini yorqin ifodalaydi.

Buxoro amirligi iqtisodiyotining asosi bo'lgan soliq va boshqa an'anaviy to'lovlar bo'lib, shuningdek ishlab chiqarishda mashina kuchidan deyarli foydalanilmasdi. Buxoro yerli aholisi dehqon va hunarmandlar qo'l kuchi bilan ishlaydilar. Lekin Yevropaning ko'plab davlatlarining mashina kuchi bilan ishlab chiqarish juda rivojlangan edi. Fitrat Turkistonlilarning ham iqtisodiyotidagi sohalarni shirkatga birlashtirib, ularda zamonaviy ishlab chiqarish uskunalarni faoliyatini yo'lga qo'yish

kerakligi taklifini beradi. Shuningdek, u Buxoro amirligiga qarashli yerlardan unumli foydalanish haqida jon kuydirib, “agar shu Shahrisabz yerlari Yapon elida bo‘lganida edi, zar ekib, zar undirar edilar”, deb yozadi. Bu o‘rinda “Hind sayyohi...”da ilgari surilgan masalalar shunchaki Movarounnahr doirasida emas, jahon miqyosida hal etilganligini ko‘ramiz. Bu albatta, Fitratning keng dunyoqarashi, el uchun kuyinishi, o‘z xalqi, yurti fojialarini o‘ta chuqur idrok qila olganligidan dalolatdir.

Buxoroning eng katta muammolaridan biri adolat mexanizmidagi nosozliklardir. Fitratning qarashlariga ko‘ra, bu tizimda tamoman poraxo‘rlik, adolatsizlik hokim bo‘lgan. Yozuvchi fikrini ochiqchasiga isbot etish uchun qozixonaga shikoyat bilan kelgan er-xotinlar o‘rtasidagi nizo bilan bog‘liq voqeani misol keltiradi. Bu kabi hodisalarni berish orqali yozuvchi qozilar tomonidan shariat qonunlarining noo‘rin qo‘llanilayotganini va adolatsizlikning yoyilishi esa Buxoroning kunlik ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganini qayd etadi.

Yozuvchi Buxoroni cho‘ktirayotgan sabablardan biri bid‘at va xurofotlarning avj olishi deya hisoblaydi. Yuz yillar ichida haqiqiy islomiy diniy bilimlar o‘rnini asossiz bid‘atlar egallashi aholi ijtimoiy hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bunga misol sifatida Fitrat Bahouddin Naqshbandning mozorida xalqning ko‘r-ko‘rona bajarayotgan amallari butparastlik ekanligi, ulamolar esa nu ishlarga qarshi chiqish o‘rniga dinni dastak qilib o‘zlarining foydasi uchun qo‘llayotganini aytib o‘tadi. Ba‘zi din peshvolari bu g‘ayriislomiy amallarni hadis va rivoyatlarga ko‘ra islomiylashtirishga urinadilar. Diniy tushunchalarni asil manbalarga tayanmasdan, o‘zlarining so‘zlari orqali isbot sifatida qabul qiladilar.

Fitrat bu holatga nisbatan ularga Muhammad alayhissalomdan qolgan deya hisoblangan hadislardan Imom Buxoriy 600 mingga yaqinini to‘plaganini va bulardan faqat 9200 tasini sahih sifatida kitobga kiritganini yozadi. YA’ni hamma hadislar ham rost bo‘lavermasligini uqtiradi.

Fitratning bu tahlili nafaqat bir ijtimoiy tuzum tanqididir, balki xalqni uyg‘otishga qaratilgan chaqiruvdir. U o‘z asarlari orqali jamiyatda islohotlar bo‘lishi kerakligini, ilm, adolat va haqiqat yo‘lidan yurish muhimligini uqtiradi. Fitratning bu fikrlari o‘z davri uchun juda jasoratli va ta‘sirli bo‘lgan. U tarixiy voqelikni tanqidiy tahlil qilish orqali millatni o‘ylashga, uyg‘onishga undagan.

Xulosa qilib aytganda, Bu asar orqali Fitrat o‘z zamonasining chuqur ijtimoiy muammolarini ochib berish bilan bir qatorda, ularni chuqur tahlil qilgan holda hayotiy yechim topishga urinadi hamda ulamo, umaro va fuqaro o‘rtasidagi adolatsizlikni fosh etadi va bu holatdan chiqish yo‘lini ilm va uyg‘onishda ko‘radi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraif Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000.
2. Boltaboyev H. Jadidlar. Abduraif Fitrat: risola. Toshkent, “Yoshlar nashriyot uyi”, 2022.
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar) Davriy to‘plam. Toshkent, “Universitet”, 1999.
4. Xo‘jayev F. Buxoroda inqilob va O‘rta Osiyoning milliy chegaralanishiga doir. / Tanlangan asarlar. Uch tomlik, 1-tom. – Toshkent: Fan, 1978.
5. B.Nazarov. Fitrat ma’rifatining gultoji // Sharq yulduzi, 1991, №8. – B.8-9.